



## SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoxda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Oilaviy korxona



Unitar korxona



Xususiy korxona




Aksiyadorlik jamiyat




Boshqa korxonalar

*mas'uliyati cheklangan jamiyat  
birlik*



*xususiy korxona  
birlik*




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha)

2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

25  
aksiyadorlik  
jamiyati

145  
unitar korxona

272  
boshqalar

4 446  
oilaviy korxona

6 931  
xususiy korxona

8 785  
mas'uliyati cheklangan  
jamiyat

**20 604**  
tijorat korxonalarini

### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirotchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-avgust oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-avgust oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2020- yil yanvar-avgust oylarida 6 023 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 578 ta, xususiy korxonalar – 916 ta, oilaviy korxonalar – 3 371 ta, muassasalar – 49 ta va boshqalar – 159 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni (1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1-sentabr holatiga ko'ra 4 818 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 770 taga yoki 4,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 446 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 422 taga yoki 4,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 3 371 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 060 taga yoki 10,8 % martaga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, 9 055 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 810 taga yoki 125,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 8 785 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 635 taga yoki 122,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 528 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 211 taga yoki 0,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, 411 tani tashkil etib, ulardan 393 tasi yoki 95,6 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 93 taga yoki 131,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 51 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-avgust oylarida, birlikda)



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati  
cheklangan jamiyatlar soni  
(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni  
(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)**

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	3 350	4 352	5 473	7 150	8 785
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	243	343	597	730	1 130
Sanoat	541	708	870	1 173	1 378
Qurilish	568	722	908	1 293	1 490
Savdo	1 053	1 352	1 615	2 151	2 718
Tashish va saqlash	379	480	516	574	625
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	126	174	202	276	345
Axborot va aloqa	47	72	78	97	107
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	28	36	60	88	98
Boshqa turlar	365	465	627	768	894

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni**  
*(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>57</b>	<b>62</b>	<b>116</b>	<b>300</b>	<b>393</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	7	10	28	82	98
<b>Sanoat</b>	33	34	45	80	108
<b>Qurilish</b>	1	1	5	15	21
<b>Savdo</b>	3	7	23	81	118
<b>Tashish va saqlash</b>	5	4	5	6	7
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	3	1	1	14	17
<b>Axborot va aloqa</b>	1	1	1	2	2
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	-	-	1	3	4
<b>Boshqa turlar</b>	4	4	7	17	18

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni  
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)**




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni  
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)**

	<b>Jami</b>	<b><i>shundan:</i></b>	
		<b>qo'shma korxona</b>	<b>xorijiy korxona</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>393</b>	<b>134</b>	<b>259</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>185</b>	<b>33</b>	<b>152</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	<b>7</b>	<b>6</b>	<b>1</b>
<b>Angor</b>	<b>20</b>	<b>6</b>	<b>14</b>
<b>Bandixon</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
<b>Boysun</b>	<b>6</b>	<b>5</b>	<b>1</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>15</b>	<b>6</b>	<b>9</b>
<b>Denov</b>	<b>15</b>	<b>7</b>	<b>8</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>13</b>	<b>9</b>	<b>4</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>13</b>	<b>7</b>	<b>6</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>9</b>	<b>x</b>	<b>9</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>14</b>	<b>9</b>	<b>5</b>
<b>Termiz</b>	<b>38</b>	<b>15</b>	<b>23</b>
<b>Uzun</b>	<b>29</b>	<b>16</b>	<b>13</b>
<b>Sherobod</b>	<b>15</b>	<b>8</b>	<b>7</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>14</b>	<b>7</b>	<b>7</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Termiz shahrida 185 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 47,1 %), Termiz 38 ta (9,6 %), Uzun 29 ta (7,4 %), Angor 20 ta (5,1 %), Denov, Sherobod va Muzrabot 15 tadan (3,8 % dan), Sariosiyo va Sho'rchi 14 tadan (3,6 % dan), Qumqo'rg'on hamda Jarqo'rg'on 13 tadan (3,4 % dan) tumanlarida tashkil etadi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

*(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*




2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (17,7 %), Denov (12,0 %), Jarqo'rg'on (7,9 %), Qumqo'rg'on (7,5 %), Sho'rchi (6,8 %), Termiz (6,7 %), Sherobod (6,1 %), Uzun (5,4 %), Qiziriq (5,2 %), Sariosiyo (5,0 %), Boysun (5,0 %), Angor (4,6 %), Muzrabot (4,4 %), Oltinsoy (4,2 %) va Bandixon tumanlarida (1,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

*(2020- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)*


2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Denov (11,8 %), Qumqo'rg'on (11,2 %), Termiz sh. (10,1 %), Sho'rchi (7,9 %), Jarqo'rg'on (7,9 %), Qiziriq (7,1 %), Sherobod (6,7 %), Boysun (5,9 %), Termiz (5,7 %), Uzun (5,3 %), Oltinsoy (5,2 %), Sariosiyo (4,0 %), Angor (3,9 %), Muzrabot (3,9 %) va Bandixon (3,4 %) ulushiga ega.



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,0 %), Denov (9,6 %), Termiz (9,3 %), Jarqo'rg'on (7,4 %), Boysun (5,7 %), Sherobod (5,5 %), Qumqo'rg'on (5,5 %), Qiziriq (5,2 %), Sho'rchi (5,1 %), Muzrabot (4,4 %), Angor (4,4 %), Sariosiyo (4,2 %), Uzun (3,6 %), Oltinsoy (2,7 %) va Bandixon (1,4 %) ulushiga ega.


## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

*(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)*



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni (2020- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)



2020- yil yanvar-avgust oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Qumqo'rg'on (13,2 %), Denov (10,7 %), Sherobod (9,1 %), Boysun (8,5 %), Qiziriq (8,3 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Oltinsoy (6,6 %), Sho'rchi (6,4 %), Uzun (6,4 %), Termiz (5,0 %), Termiz sh. (4,5 %), Sariosiyo (3,9 %), Muzrabot (3,4 %), Angor (3,1 %) va Bandixon (2,9 %) tumanlari ulushiga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2020- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main navigation menu includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. A search bar at the top right allows users to search by name ('Nomi') or registration number ('Kod'). A dropdown menu is open over the 'INTERAKTIV XIZMATLAR' link, showing options like 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Usulby materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim ettiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxona pasporti'. The 'Korxona pasporti' option is highlighted. On the left, there's a sidebar titled 'RASMIY STATISTIKA' with various statistical reports like 'E'lon qilish taqvim', 'Metama'lumotlar', etc. On the right, there's a column titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' with links to 'Ahollni ro'yxtagaga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel. (76) 225-65-90**